

## AXBOROT-PSIXOLOGIK TAHDID SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING AXBOROT XAVFSIZLIGIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI

Yuldasheva Maxfuzaxon Qobiljonovna

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dots.nti,**

**siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.1786287>**

### **Annotatsiya:**

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida axborot-psixologik tahdidlarga qarshi kurashishning huquqiy, tashkiliy va strategik asoslari tahlil qilinadi. Davlat siyosatining shakllanish bosqichlari, milliy xavfsizlik tizimidagi axborot xavfsizligi o'zni hamda xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar** *Axborot xavfsizligi, axborot-psixologik tahdid, davlat siyosati, milliy xavfsizlik, kiberxavfsizlik, AKT*

### **Резюме**

В данной научной статье проводится анализ правовых, организационных и стратегических основ противодействия информационно-психологическим угрозам в Республике Узбекистан. Широко освещены этапы формирования государственной политики, место информационной безопасности в системе национальной безопасности, а также реформы, осуществляемые в соответствии с международными стандартами.

**Ключевые слова** *Информационная безопасность, информационно-психологическая угроза, государственная политика, национальная безопасность, кибербезопасность, ИКТ*

### **Abstract**

This scientific article analyzes the legal, organizational, and strategic foundations of countering information-psychological threats in the Republic of Uzbekistan. It provides a comprehensive overview of the stages of state policy formation, the role of information security within the national security system, and the reforms being implemented in line with international standards.

**Keywords** *Information security, information-psychological threat, state policy, national security, cybersecurity, ICT*

**Kirish.** Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligi masalalari milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylandi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab axborot makonini himoya qilish, axborot siyosatini shakllantirish va axborot-psixologik tahdidlarga qarshi tizimli choralar ko'rib kelmoqda.

O'zbekistonda davlat mustaqilligiga erishganidan keyin milliy axborot xavfsizligi tizimi shakllandi, unga doir qonunchilik va davlat siyosati rivojlana boshladi. Mamlakatda bu sohaga oid kategoriyalar paydo bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 12 dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 12-moddasida axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati quyidagicha ta'riflangan: "Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zni va ahamiyatini belgilaydi.

## **Axborot xavfsizligini ta'minlashga doir davlat siyosatining shakllanish bosqichlari va tamoyillari;**

O'zbekistonda axborot xavfsizligi siyosati bir necha bosqichda shakllangan:

1) 1991–2000 yillar — dastlabki huquqiy asoslarning shakllanishi. 1993 yilda qabul qilingan «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonun axborot sohasidagi davlat siyosatining poydevorini yaratdi.

2) 2001–2012 yillar — AKT infratuzilmasini kengaytirish, elektron hukumat tizimining joriy etilishi. Bu davrda kiberxavfsizlikka oid dastlabki talablar shakllandi.

3) 2013–2017 yillar — axborot xavfsizligini milliy xavfsizlik darajasiga ko'tarish. 2013 yilgi «Axborot xavfsizligi konsepsiyasi» davlat siyosatining yagona metodologik asosini belgiladi.

4) 2017–2023 yillar — raqamli transformatsiya va kiberxavfsizlikning kuchayishi. «Kiberxavfsizlik doktrinasi» va «Sifrovoy Uzbekistan – 2030» strategiyalari qabul qilinishi keskin burilish yasadi.

### **Davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

- milliy manfaatlar ustuvorligi;
- axborot makonining suvereniteti;
- kiber va psixologik tahdidlarga qarshi kompleks yondashuv;
- davlat-xususiy sektor hamkorligi;
- xalqaro standartlarga muvofiqlik (ISO/IEC 27001);

**Axborot xavfsizligi siyosati** – bu axborot xavfsizligi sohasiga tegishli hujjatlashtirilgan ko'rsatma, qoida, protseduralar va amaliyotlar to'plami bo'lib, undan Tashkilot o'z faoliyatini yuritishda qo'llanma sifatida foydalanadi, shuningdek, Axborot xavfsizligi siyosati Tashkilot xavfsizligining asosiy prinsiplarini, axborot xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy texnologik va protseduraviy jihatlarini belgilaydigan rahbariy hujjat hisoblanadi. Axborot xavfsizligi siyosatining bosh maqsadi, Tashkilotda axborot xavfsizligining yagona strategiyasini ishlab chiqishdir.

Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hozirgi holati, uning yaqin istiqbollari, ulardan foydalanish maqsadi, vazifalari, ishlash tartiblari va huquqiy asoslari hamda axborot tizim va resurslariga bo'lgan tahdidlarning tahlil natijalarini hisobga olish kerak bo'ladi.

**Axborot-psixologik tahdidlar va ularga qarshi davlat siyosati;** Axborot-psixologik tahdidlar zamonaviy xavfsizlikning yangi va murakkab shaklidir. Bu tahdidlar, jumladan, yolg'on ma'lumotlar, manipulyativ kontent, botlar orqali targ'ibot, ijtimoiy tarmoqlarda ruhiy bosim kabi shakllarda namoyon bo'ladi. OECD (2022) hisobotida bu tahdidlar global xavflar ichida yuqori o'rin egallashi qayd etilgan.

O'zbekistonda ushbu tahdidlarga qarshi quyidagi mexanizmlar mavjud:

- Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan monitoring;
- Kiberxavfsizlik markazi faoliyati;
- Mediata'lim va mediasavodxonlik dasturlari;
- Jamoatchilik ongini himoyalashga qaratilgan psixologik barqarorlik strategiyalari.

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy - huquqiy hujjatlar Axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asosi hisoblanadi.

Shuningdek, Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqishda asosan O'zbekiston Respublikasi hududida axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy qo'llanmadan foydalaniladi (O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishning 2013-2020- yillarga mo'ljallangan kompleks dasturini amalga oshirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtirish komissiyasining 2016- yil 23- fevraldagi 7 - sonli bayonnomasiga 10 – ilova bo'lib qabul qilingan).

### **Xulosa**

Yuqorida keltirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning axborot xavfsizligi siyosati izchil takomillashib, zamonaviy kiber va psixologik tahdidlarga mos ravishda rivojlanmoqda. Davlat siyosati milliy manfaatlariga asoslangan bo'lib, xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilmogda. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, axborot xavfsizligi bugungi kunda respublikamizning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim elementi darajasiga ko'tarilmogda. Axborot xavfsizligi madaniyatini mamlakatning tijorat tashkilotlari va davlat tuzilmalari faoliyatining barcha sohalariga chuqur singdirmasdan bozor ishtirokchilarining elektron hamkorligini kengaytirish va yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin emas. Tashkilotlarda axborot xavfsizligi madaniyatini oshirishning eng samarali vositasi bo'lgan axborot xavfsizligi siyosati zamonaviy sharoitda muhim omil bo'lib qolmogda. Bundan tashqari, yurtimizda iqtisodiy faoliyat va davlat boshqaruvi jarayonlarining raqamlashtirilishi kuchayishi bilan axborot xavfsizligi siyosatining roli tobora oshib bormogda.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonun, 1993.
2. O'zbekistan ICT Development Report, 2010.
3. «Axborot xavfsizligi konsepsiyasi», 2013.
4. «Sifrovoy Uzbekistan – 2030» strategiyasi, 2020.
5. OECD Digital Society Report, 2022.